



ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Andijon davlat pedagogika instituti
Maxsus pedagogika Olegofrenopedagogika yo'nalishi 1-
bosqich talabasi Sakhobiddinova Zubaydabonu
Ilmiy raxbar: Maxsus pedagogika
kafedrası o'qituvchisi; Mamatisayeva Surayyo

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15233854>

Annotatsiya: Ushbu maqolada eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni psixologiyasining o'ziga xos xususiyatlari (diqqat, xotira, xayol, tafakkur, tasavvur) o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar va iboralar: Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar, xarakter, surdopedagogika, diqqat, tafakkur, xayol.

Kirish. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar-bu o'zlariga xos ehtiyojlarga ega, maxsus yordam va qo'llab-quvatlashga muhtoj bo'lgan guruhni tashkil etadi. Ularning rivojlanishida eshitish qobiliyatining cheklanganligi turli ijtimoiy, emosional va kognitiv jihatlarida muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish qonuniyatlarini o'rganish, eshitish idrokini takomillashtirish, kasb yo'nalishlari bo'yicha mehnat qilishlariga erishish, o'qitishning texnik vositalarini takomillashtirish, bog'cha va maktab ta'limining uzluksizligini ta'minlash, Respublika bo'yicha sog'liqni saqlash hamda xalq ta'limi tarmoqlari ishlarini muvofiqlashtirish, erta tashxis diagnozi muammolarini hal etishdan iboratdir.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning tekshiruv usullari N.A.Rau tomonidan ishlab chiqilgan. Rau bolalarni eshituv holatiga ko'ra ikkita toifaga bo'ladi: kar saqov va zaif eshituvchi bolalar. Rau kar va zaif eshituvchi bolalar bilan ular nutqini saqlab qolish niyatida labdan o'qishga o'rgatish va savodini chiqarish uchun ma'lum korreksiyalar kerakligini ta'kidlaydi. Eshitish qobiliyati pasayishining ikki turi farqlanadi, ya'ni kar-soqovlik va zaif eshituvchilik. Zaif eshituvchi bolalarda nutqni idrok qilish va qabul qilishda qiyinchiliklar yuzaga keladi, ammo, eshitishdan foydalanib cheklangan miqdorda bo'lsa ham so'z zahirasini to'plash mumkin. Eshitish holatining pasayishi karlik darajasida bo'lsa, nutqni tabiiy o'rganishning imkoniyati bo'lmaydi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning rivojlanish xususiyatlari va imkoniyatlari, ularga ilk davrdan boshlab korreksion-pedagogik yordam ko'rsatish zaruratidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Kar bolaning rivojlanishi ijtimoiy sharoiti psixologik yangi holatlar kuzatilishini asoslashini e'tirof etadi. L. Vigotskiyning fikr-mulohazalari maxsus pedagogikaning rivojiga katta hissa qo'shdi, rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalarni tabaqalab o'qitish muammolariga o'zgacha qarash imkonini beradi. Uning nazariy ta'limoti eshitishda nuqsoni bolgan bolalarni kompensator imkoniyatlarini tadqiq etuvchi eksperimental psixologik tadqiqotlarga stimulus sharoitida ta'sir etgan. L.S. Vigotskiy safdoshlari L.K. Zankov va Sh.M. Solovyov rivojlanishida nuqsoni mavjud xususan eshitishda nuqsoni bor bolalar idrokining xotirasi va nutqi rivojlanish xususiyatlarini o'rganuvchi psixologik tadqiqotlar o'tkazdilar. Xususan, K.I. Veresotskaya eshitishda nuqsoni bolgan bolalarni predmetlarni idrok etish, L.V. Zankov va D.R. Mayns ko'rgazmali materialni eslab qolish malakasini, M. M. Nudelman kar o'quvchilar tasavvurlarini, Z.S. Beyn ko'ruv idrokining konstantligini, N. I. Shif eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni ranglarni idrok etish xususiyatlari, M. Y. Votsev kar o'quvchilarning yozma nutqi va o'qish malakalarini tadqiq etganlar. Eshitish qobiliyatining pasayishi bolaning umumiy va psixik rivojlanishiga, eng asosiysi nutqining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Eshitmaydigan va zaif eshituvchi bola maxsus o'rgatib borilmasa, u gapira olmaydi, atrofdagilar bilan muomulada esa chegaralangan miqdordagi imoishoralardan foydalanadi. Bolalar kundalik hayotida kattalarga taqlid qilgan holda oddiy amaliy faoliyat turlarini bajara oladilar, turli buyumlarning funksional vazifalarini o'zlashtiradilar va ulardan to'g'ri foydalanadilar, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish malakasini egallab oladilar. Bunday bolalarga maxsus ta'lim berish shart-sharoitlari yaratilmagan holda, ular o'z g'alar nutqini idrok eta



olmasligi oqibatida sensor va aqliy rivojlanishi so'zlashuv nutqining ta'sirisiz kechadi. Shunday qilib eshitish qobiliyatining pasayishi va nuqiy rivojlanishining buzilishi oqibatida bolaning rivojlanishi to'xtamasada, ancha cheklanib qoladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uzoq muddat davomida ko'rgazmali-obrazli tafakkur bosqichida qoladilar. Xususan, T.V.Rozonova tadqiqotlarida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ko'rgazmali-obrazli tafakkurining rivojlanishidagi farq maktabgacha ta'limining boshida kuzatilishini isbotlaydi. Ko'rgazmali-obrazli tafakkurni shakllantirish so'zlashuv nutqining shakllanishi bilan bog'liq bo'lib, ko'rgazmali-obrazli tafakkurni so'zlashuv mantiq tafakkuri bosqichiga o'tish sog'lom bolalarga nisbatan eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda uzoq muddat davomida amalga oshadi. Bu fikrlash operatsiyalarini rivojlanishida namoyon bo'ladi.

Eshitishning buzilishi eshitish nuqsoni bo'lgan bolalarda tafakkur rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ammo intellekti saqlanib qoladi. Demak, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolaning potensial imkoniyatlari eshitishi me'yorida bo'lgan bola bilan bir xil. Bu imkoniyatlarni amalga oshirishga faqat bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish bilan cheklanib qolmasdan, nafaqat eshitish va nutqni rivojlantirishga, balki umuman bilish faoliyatini shakllantirishga qaratilgan maxsus tashkil etilgan o'quv jarayonida erishiladi. L.S.Vigotskiyning fikricha "jamiyatdagi karlik muammosi-ijtimoiy muammo"dir. O'ziga xos kommunikativ xususiyatlarga ega bo'lgan kar va zaif eshituvchi bolalarning ta'limi va ijtimoiy reabilitatsiya jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish alohida ahamiyatga ega. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda saqlanib qolgan sezgi a'zolarining kompensator faollashuvi munosabati bilan axborotni visual idrok etish yetakchi o'rinni egallashi ham bu omilni kuchaytiradi. Diqqat asosan o'quv faoliyat asosida amalga oshib boradi. Normal eshituvchi shaxslarda ham, eshitish qobiliyati buzilgan shaxslarda ham ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi diqqatni tarbiyalashdir. Nuqsonli bolalar diqqati qator bolalarda, bolalar diqqatini o'qituvchi, tarbiyachining og'zaki nutqi boshqarib borsa, eshitish qobiliyati buzilgan bolalar diqqatida ko'rish taassurotlari yetakchilik qiladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar diqqatini tekshirishda bolalarning yosh hamda nutqi rivojlanganlik holatiga muvofiq metodikalar tanlab olinadi. Maktabgacha yoshdagi va maktab yoshdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning turg'un diqqatini tekshirishda Landolt namunalari (shaklli, raqamli, harfli jadval) foydalaniladilimga bo'lgan qiziqishni oshirishda, faqat o'rganilayotgan materialning mazmuniga tayanib bo'lmaydi, o'quv jarayoniga bolalarni jalb qilish usullari hamda mashg'ulot texnologiyalari muhim ahamiyatga ega. A.R.Luriya va F.L.Yudovich nutqiy rivojlanishi orqada qolgan sog'lom egizak bolalar tafakkurining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etgan. Bolalar harakatni so'zdan ajratish, rejalashtirish, elementar tasniflash malakasiga ega bo'lmaganlar. Predmet ifodasi, belgi, munosabatlarini anglab bola predmet obrazlari bilan tafakkur harakatlarini amalga oshiradilar. Ta'lim jarayonida eshitish qobiliyati cheklangan bolaga har qanday o'quv materialini so'z bilan tushuntirish ba'zan qiyin kechadi. Ijodiy tasavvur tasavvurning oldindan namoyon bolishi va mustaqil ravishda yangi obrazlar, taassurotlar yaratish bilan belgilanadi. Ijodiy tasavvur va tafakkurning o'zaro munosabatini tadqiq etib, A.V. Petroyevskiy va M.B. Verbenskiy bu ikki ruhiy jarayonda intellektual faoliyatning turli aspektlarini ko'radilar. Ular tasavvur va tafakkurning bir necha shakli mavjud deb e'tirof etadilar

Xulosa o'rinda shuni aytish lozimki, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning psixologik rivojlanishini yaxshilash uchun erta tashxis qo'yish, individual yondashuvlar va mutaxassislarining yordamiga tayanish, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning intellektual rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ularga jamiyatga moslashishda katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Mamirova Feruza Sulaymonovna (2023). STUDY AND SIGNIFICANCE OF YOUTH DEPENDENCE ON SOCIAL NETWORKS. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1(17), 205-212

2. Речинская.Е.Г.ДОШКОЛЬНАЯ сурдопедагогика М.,2018.

3. Murodjon, Xovodillayev. "METHODS FOR THE FORMATION OF SPEECH IN MENTALLY RETARDED CHILDREN." Academia Repository 4.10(2023):332-335.



МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ ТАРАҚҚИЙОТИ, МУАММО YECHIM VA
ISTIQBOL” Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Andijon. 9-10 aprel
2025-yil



L.R.Mo’minova .SH.M.Amirsaidova va boshqalar.Maxsus
psixologiya.T.:O’zbekiston faylasuflar milliy jamiyati,2013.

5.Акрамова Х. (2020). формирование навыков здорового образа жизни у детей с
умственной отсталостью. педагогические-коррекцианно обобенности в семейных условиях.